

**IS GAZIDAN ZAHARLANISH- ALOMATLARI, BIRINCHI YORDAM,
DAVOLASH VA OLDINI OLISH.**

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi Maxsus fani o'qituvchisi:*
OYGUL RASULOVA NURMAXAMMAD QIZI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada is gazidan zaharlanish haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan, jumlada is gazidan zaharlangada insonda kuzatiladigan alomatlari, birinchi yordam ko'rsatish, davolash hamda zaharlanishni oldini olish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: is gazi, karboksigemoglobin, taxikardiya, gipertermiya, kortikosteroidlar, diuretiklar, vitaminlar.

Is gazidan zaharlanish - inson organizmiga is gazi kirishi oqibatida rivojlanadigan o'tkir patologik holat bo'lib, hayot va salomatlik uchun xavflidir va malakali tibbiy yordamsiz o'limga olib kelishi mumkin.

Is gazi atmosfera havosiga barcha turdagi yonish jarayonlarida ajralib chiqadi. Shaharlarda shuningdek asosan ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan gazlar orqali. Is gazi qondagi gemoglobin bilan faol bog'lanib, karboksigemoglobin hosil qiladiva to'qimalarga kislorod tashishni bloklab qo'yadi, bu esa gemik turdagi gipoksiyaga olib keladi. Shuningdek oksidlanish reaksiyalariga aralashib to'qimalarda biokimyoviy muvozanatni buzadi.

Is gazidan quyidagi hollarda zaharlanish mumkin:

Yong'in sodir bo'lganda taqdirda:

Ushbu gaz bir qator organik moddalarni(aseton, metil, spirt, fenol va hokazo) sintez qilish uchun ishlatiladigan ishlab chiqarishlarda:

Havo almashinuvi yetarli bo'lmagan sharoitida yoritish gazi sizib chiqishi oqibatida yoki gaz yoqiladigan xonalarda, masalan, gaz plitalari, suv isitish moslamalari, ochiq yonuv kamerali issiqlik generatorlari, isitish moslamalari. Bu holat ko'pincha duduronlarning tiqilib yoxud ishlamay qolishi, gaz yonishi uchun havo yetarli bo'lmaganda kuzatiladi.

Ventilyatsiyasi yomon bo‘lgan garajlar, boshqa yaxshi havo aylanmaydigan xonalar, tunellarda, chunki avtomobil chiqindi gazlarida normativlar bo‘yicha 1-3 %, karbyuratorli motor regulovkasi yomon bo‘lganda esa 10% gacha CO bo‘lishi mumkin;



Uzoq vaqt mobaynida avtomobil ko‘p bo‘lgan yo‘lda yoki uning yonida bo‘lganda. Katta yo‘llarda is gazining o‘rtacha konsentratsiyasi zaharlanish ostonasidan oshadi;

Uy sharoitida pechli isitishda pechlarning eshigi o‘z vaqtida yopilmaganda;

Nafas olish apparatlarida sifatsiz havo ishlatilganda;

Chilim chekish vaqtida -- chilim apparatiga kislorod kelishi yetishmovchiligi sodir bo‘lganida bu holat tez-tez kuzatiladi. Aksariyat odamlar chekishdan so‘ng bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, uyquchanlikni his etadi, bu zaharlanishga ishora qiladi.

Zaharlanish o‘tkir yoki surunkali bo‘lishi mumkin. Uning kechishi havodagi is gazi konsentratsiyasi va uning ta’siri vaqtiga bog‘liq. Gaz konsentratsiyasi me’yoriy darajadan sezilarli oshib ketganida qisqa muddat ichida o‘tkir zaharlanish sodir bo‘ladi. Darajasi biroz yuqori bo‘lgan havodan uzoq vaqt nafas olishda surunkali zaharlanish tashxislanadi. Klinik tasvirning og‘itligiga qarab, zaharlanishning 3 darajasi farqlanadi:

Yengil daraja : Patalogik gemoglobin miqdori 30% dan oshmaydi.

O'rta daraja: Qonda 30- 40 % karboksigemoglobin bo'lganida rivojlanadi.

Og'ir daraja: Karboksigemoglobin ulushi 40 - 50 %ni tashkil etadi.

Nafas olinayotgan havo tarkibida 0.08% CO bo'lsa, odam bosh og'rig'i va nafas qisilishini his qiladi. CO konsentratsiyasining 0.32% gacha o'sishida falajlik va hushni yo'qotish kuzatiladi. Konsentratsiya 1.2% dan yuqori bo'lsa, ikki yoki uch nafasdan so'ng hush yo'qoladi, odam 3 daqiqadan kamroq vaqt ichida vafot etadi. Toksikolog shifokorlar va reanimatologlar ushbu gaz bilan zaharlanishning patognomik- fizikal alomatlarini ajratishmaydi. Jismoniy ko'rik natijasida taxikardiya, gipertermiya, og'ir bazi hollarda uzil- kesil nafas olish (Cheyn-Stoks), qon bosimining pasayishi aniqlanadi.

Tashxisni yakuniy tasdiqlashga quyidagilar yordam beradi:

Laboratoriya tahlillari: Periferik qon tekshirilganda eritrositoz, gemoglobin darajasining oshganligi qayd etildi. Leykositlar soni ham oshgan, leykositlar formulaning tayoqchayadroviy siljigan shu bilan birga ECHT pasaygan bo'ladi. Karboksigemoglobin darajasini aniqlash va uni normal gemoglobin bilan solishtirish zaharlanish og'irligini ko'rsatadi.

Ko'krak qafasining rentgenologik tekshiruvi: Bunda o'tkir o'pka emfizemasi va kichik qon aylanish doirasida dimlanish belgilari qayd etiladi. O'pka ildizining kengayishi kuzatiladi. Har ikki tomonda chetlari xira bo'lgan kichik va katta o'choqli soyalar aniqlanadi. Rentgenologik o'zgarishlar 7 - 10 kun davomida normal holatga qaytadi.

Davolash choralari;

Zaharlanishdan so'ng dastlabki 3soatda kislorod miqdori yuqori bo'lgan kislorodli yostiq berish juda muhimdir. Gaz manbaini tezda bartaraf etib , bosimi 1.5-2 atmosfera bosimigacha oshirilgan sof kislorod bilan nafas olish tavsiya etiladi. Yanada afzalrog'i karbogen bilan nafas olish. Davolash statsionarda amalga oshiriladi. Bemorga vena ichiga infuziyalar kiritish, kardiotrop, antikonvulsiv preparatlar, kortikosteroidlar, diuretiklar, vitaminlar buyuriladi.

Jahon tibbiyotida is gazidan zaharlanishida foydalanish uchun ishonchli antidotlar ma'lum emas. Biroq, rus olimlari tomonidan kashf etilgan "Atsizol" hozirda antidot sifatida o'rin tutadi. U mushak ichiga eritma sifatida kiritiladi. Bundan tashqari, profilaktika vositasi sifatida ham taqdim etiladi.

Oldini olish va prognozi:

Kasallik prognozi patologik jarayonning og'irligiga, ko'rsatiladigan tibbiy yordamning vaqti va sifatiga bog'liq. Yengil zaharlanish asoratlarsiz bartaraf etiladi, o'rta-og'ir va og'ir zaharlanishlar ko'pincha markaziy asab va yurak - qon tomir tizimi

tomonidan asoratlarga olib keladi. Koma holatida bo'lgan bemorlarning holatini oldindan aytish deyarli imkonsiz.

Profilaktik maqsadlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish kerak. Uyda zaharlanishga yo'l qo'ymaslik uchun nosoz gaz va isitish moslamalaridan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Avtomobil dvigateli ishlab turganda, garajda uzoq muddat bo'lmaslik kerak. Ishlab chiqarish xonalarida yaxshi ventilyatsiya ta'minlanishi kerak.

Bundan tashqari maxsus detektorlar mavjud bo'lib, ular havoda is gazining miqdori me'yordan oshganda kishiga signal beradi.

Xulosa;

Is gazidan zaharlanish inson hayoti va sog'lig'i uchun o'ta xavfli holatlardan biri bo'lib, u asosan maishiy va sanoat sharoitlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasligi natijasida yuzaga keladi. Is gazi (uglerod oksidi) rangsiz, hidsiz va ta'msiz bo'lgani sababli inson uni sezmaydi va qisqa vaqt ichida nafas olish tizimi orqali qonga o'tib, gemoglobin bilan birikadi. Natijada to'qimalarga kislorod yetkazib berish jarayoni izdan chiqadi va organizmda og'ir gipoksiya holati rivojlanadi. Bu esa bosh og'rig'i, umumiy holsizlik, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qusish, yurak urishining tezlashuvi, hushdan ketish kabi alomatlar bilan namoyon bo'lib, vaqtida yordam ko'rsatilmasa og'ir asoratlarda va hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Is gazidan zaharlanishning klinik belgilari zaharlanish darajasiga bog'liq bo'lib, yengil holatlarda faqat umumiy noxushliklar kuzatilsa, og'ir holatlarda markaziy asab tizimi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari jiddiy zararlanadi. Ayrim hollarda hatto davolanishdan so'ng ham uzoq muddatli asoratlarda, jumladan xotira buzilishi, asabiylik, ish qobiliyatining pasayishi va surunkali kasalliklar rivojlanishi mumkin. Shu bois ushbu zaharlanish turiga befarq qarash mutlaqo mumkin emas.

Is gazidan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish tezkor va to'g'ri bajarilishi zarur. Jabrlanuvchini imkon qadar tezroq zaharlanish manbasidan uzoqlashtirib, toza havoga olib chiqish, xonani shamollatish, tor kiyimlarini bo'shatish va nafas olishni yengillashtirish muhim hisoblanadi. Hushsiz holatda bo'lgan bemorni yonbosh holatda yotqizish, nafas va yurak faoliyatini nazorat qilish hamda darhol tez tibbiy yordam chaqirish talab etiladi. O'z vaqtida ko'rsatilgan birinchi yordam og'ir asoratlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Tibbiy muassasalarda is gazidan zaharlanishni davolash kompleks yondashuvni talab etadi. Davolash jarayonida kislorod terapiyasi asosiy o'rinni egallab, zarurat tug'ilganda giperbarik kislorod bilan davolash usullari qo'llaniladi. Shuningdek, yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi dori vositalari, detoksikatsiya muolajalari va asab tizimini tiklashga qaratilgan davolash choralari olib boriladi. Bemorning umumiy holati to'liq barqarorlashmaguncha tibbiy nazorat davom ettiriladi.

Is gazidan zaharlanishning oldini olish eng samarali va muhim choradir. Profilaktika maqsadida gaz jihozlarini faqat mutaxassislar tomonidan o'rnatish va muntazam texnik ko'rikdan o'tkazish, tutun chiqarish tizimlarining sozligini ta'minlash, xonalarni doimiy ravishda shamollatib turish zarur. Bundan tashqari, is gazini aniqlovchi maxsus signalizatorlardan foydalanish, aholi o'rtasida targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish, ayniqsa qish mavsumida xavfsizlik qoidalariga rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, is gazidan zaharlanishning salbiy oqibatlarini kamaytirish va inson hayotini asrash uchun har bir shaxs ushbu xavf haqida yetarli bilimga ega bo'lishi, birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalarini bilishi va profilaktik choralarni kundalik hayotda qo'llashi zarur. Faqatgina tibbiyot xodimlari emas, balki jamiyatning barcha a'zolari ushbu muammoni jiddiy qabul qilgan taqdirdagina is gazidan zaharlanish bilan bog'liq fojiali holatlarning oldini olish mumkin bo'ladi.